

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

TILSHUNOSLIK

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasaliş modelları.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili... 90	
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремнологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алмишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 82.09:82-1

LUTFIY LIRIKASIDA BADIY MAZMUN VA IRFONIY TALQIN UYG'UNLIGI

ГАРМОНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО СОДЕРЖАНИЯ И МИСТИЧЕСКОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ЛИРИКЕ ЛУТФИ

THE HARMONY OF ARTISTIC CONTENT AND MYSTICAL INTERPRETATION IN LUTFI'S LYRICS

Qurbonova Elnura G'aybulloyevna 

O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi Lutfiy ijodining asosiy g'oyasi, mavzu ko'lam, poetik uslubining o'ziga xosligi tahlilga tortilgan. Shoir lirikasida qo'llanilgan zulf, yuz, ko'z singari poetik obrazlar zamirida qo'llanilgan so'fiyona mazmun, turli majoz va tashbehlar ifodasi xususida qarashlar ifodalangan. Maqola Lutfiy lirikasining turkiy mumtoz she'riyatdagi o'rni, qadr-qimmatini va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Аннотация

В статье анализируются основная идея, тематический охват и своеобразие поэтического стиля Лутфи — одного из крупнейших представителей узбекской классической литературы. Высказываются мнения о суфийском содержании, лежащем в основе поэтических образов, таких как кудри, лицо и глаза, используемых в лирике поэта, а также о выражении различных метафор и сравнений. Статья призвана раскрыть место, значение и ценность лирики Лутфи в тюркской классической поэзии.

Abstract

The article analyzes the main idea, thematic scope, and uniqueness of the poetic style of Lutfi, a major representative of Uzbek classical literature. It expresses views on the mystical (Sufi) meanings behind poetic images such as hair, face, and eyes used in his lyrics, along with the expression of various metaphors and similes. The article serves to highlight the place, value, and significance of Lutfi's lyric poetry in Turkic classical literature.

Kalit so'zlar: Lutfiy, tasavvuf she'riyati, oshiq, ishq, ma'shuqa, timsol.

Ключевые слова: Лутфи, суфийская поэзия, возлюбленный, любовь, любовница, символ.

Key words: Lutfi, mystical poetry, lover, love, lover, symbol.

KIRISH

XIV-XV asrlar o'zbek mumtoz adabiyoti, madaniyati va san'atining takomillashuvi, turkiy xaqqlar she'riyati, xususan, milliy g'azalchiligimiz rivojida Lutfiy, Atoyi, Sakkokiy, Gadoiy kabi ijodkorlarning o'rni beqiyos. Ularning "lirikasida, asosan, mahbuba go'zalligi tasviri bilan birga oshiqning ishq, dard-u hasrati, orzu-havaslar, intilishlari tasviriga keng va jiddiy o'rin berila boshlagan. Biroq haqiqiy iste'dod egalari tayyor an'anaviy obraz va g'oyalarni kuylash bilan qanoatlanmaslikka, loaqal an'ana doirasida bo'lsa ham tasvirda yangilikka erishishga intilar edilar" [5, 66].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega shoirlardan biri Lutfiydir. Turkiy va forsiy she'riyatda birdek kamolotga erishgan shoir o'zbek lirik adabiyotining yangi bosqichga ko'tarilishi hamda zamondosh va o'zidan keyingi shoirlar ijodiy ravnaqiga samarali ta'sir etgan. Shoir xalqona she'riyatdan oziqlanib, o'rni kelganda mavjud an'analarni o'ziga xos tarzda boyitgan, yangi ifoda vositalari bilan ziynatlagan. Turkiy she'riyatning imkoniyatlarini o'zining shoirlik mahorati, o'tkir ijodkorlik nigohi, yuksak badiiy zavqi va falsafiy mushohadakorligi bilan kengaytirgan. Shu bois bo'lsa kerak Lutfiy she'riyatining tili nafis, ravon, hissiyotga boy. Shoir g'azallaridagi ohangdorlik, tasvirdagi jonlilik lirik qahramonning ko'ngil sirlari, qalb bedorligi, dard-u hasrat va iztirobining natijasidir. U lirik qahramon – oshiq holati va kechinmalarini shoirona teran nigoh bilan anglaydi.

Oshiq ruhiyatini kitobxon ko'z oldida jonlantirib, idrok etishga ko'maklashadi. Bu uchun mo'zaj iboralar, xalq poetik ijodining boy namunalaridan unumli foydalanadi. Shoir lirikasidagi yor go'zallikda tengsiz. Quyidagi g'azalida Alloh uni O'z nuri bilan yaratganini ta'kidlaydi:

*Zotingizda Haq izhori kamolot qilibdur,
O'z nuri bilan suratingizni yaratibdur [1, 71].*

O'zining nazokat va latofati bilan yaratilgan ichida tengsiz hilqat sanalgan ayol va undagi barkamol husn tasviri adabiyotda hamisha markaziy tasvir vositasi bo'lib kelgan. Ishqning inson taqdiridagi qudrati cheksiz, u oshiq ruhini boyituvchi, qalbini oydinlatib, kamolotga yetaklovchi ilohiy quvvatdir. Biroq ishqni hamisha ohangraboddek o'ziga tortuvchi bir kuch bor – husn. Husn ishqning quvvat manbai, ilhom bulog'idir. Adabiyotlarda Alloh taolo husnni yuz ulush qilib, uning to'qson to'qqizini Havvo onamizga, qolgan bir ulushini o'n qismga bo'lib, to'qqizini Yusuf alayhissalomga va qolganlarini bashariyatga bergani aytiladi [4, 19]. Adabiyotda ishq va husn azaldan hamroh, biri ikkinchisini taqozo qiluvchi, bir-biriga talpinuvchi, o'zaro ajralmas ikki qudratli kuch o'laroq gavdalanadi. "Men yashirin bir xazina edim, bilinmoq istadim...", deya marhamat qilinadi qudsiy hadislarning birida. Mutasavviflarning fikricha, Alloh mukammal kamolot va husn egasi bo'lib, jamiki olam, mavjudot go'zalligi Undandir. Haqning cheksiz go'zalligi va qudrati yer-u samo, quyosh, oy, yulduzlar, tabiat, mavjud borliq, undagi katta-yu kichik har ashyo va har zarrada aks etadi. Shoir bunga alohida e'tibor qaratib, husnning barkamol tasvirini chizadi. Keltirilgan baytda Allohning "Nur" sifatiga ishora mavjud. Zero, Allohning goz'al ismlaridan biri aynan Nurdir. Chunki nur Undandir. Butun borliq uni o'zida aks ettirgan inson botini ham shu nur sabab oydinlikka, hidoyatga erishadi. Shu bois shoir yor husnini Allohning mukammal yaratuvchilik qudratining mo'jizasi sifatida ulug'laydi:

*O'n juzv turur erdi bori husn-u malohat,
Qismat kuni Haq to'qqiz ulush sizga beribdur.
Bir juzviki Yusufga tegib erdi, chu bordi,
Oning uchun ul ham sizga meros qolibdur [1, 71].*

Umuman olganda, adabiyotda ishq va husn hamisha bir-birini to'ldiruvchi kuch sifatida yonma-yon tasvirlangan. Husn Allohning jamol sifatini ifodalasa, ishq inson qalbida shu jamolga yetishishdagi intilishlarini aks ettiradi. Rasuli akram Muhammad s.a.v.ning "Alloh go'zaldir va go'zallikni yaxshi ko'radi" hadislari ham fikrimizni yanada oydinlashtiradi. Ma'lumki, Yusuf alayhissalom bashariyat orasida go'zallik ramzi sanaladi. Shoir mazkur g'azalida go'zallikni xayoliy o'n ulushga bo'lib, uning to'qqiz qismi o'z mahbusasiga tekkanini tasvirlaydi. Biroq, Yusuf a.s.ga berilgan ulush ham yoriga meros bo'lib o'tganidan faxrlanib, ma'shuqasidagi barkamol husnni yuqori baholaydi. Shoir obraz holatini xarakterlash va tavsiflash maqsadida talmih, mubolag'a kabi badiiy san'atlardan foydalanadi. Ishq va husn uyg'unligini teran, ramziy tasvirlarda ifodalaydi.

Aytish joizki, so'zdan mohirlik bilan istifoda etish hamma so'z ustalariga muayassar bo'lavermaydi. Shoir yor go'zalligini tasvirlashda bejirim iboralar, ohoriy tashbihlarni ustalik bilan qo'llar ekan, yorning ko'zlarini qora bodomga tashbih qiladi:

*Ey do'stlarim, ohu ko'zin ko'rmayin o'lsam,
Zinhor, soching tobutim uzra qora bodom [1, 173].*

Ma'lumki, zulf mumtoz adabiyotda, yuz, qosh, ko'z, go'zal qomat kabi yor go'zalligini tamsil etuvchi vosita o'laroq lirik shoirlar diqqat-markazida bo'lgan. Lutfiy ham ma'shuqasining tengsiz go'zalligini ta'kidlar ekan, shunday deydi:

*Qosh-u ko'z-u zulfu yuz-u qomating qasdimdadur,
Qaysini aytay, meni boshtin-oyoqing kuydurur [1, 96].*

Lutfiy lirikasida yorning yuzi va zulf tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Shoir ko'p g'azallarida yor yuzida ilohiy nur tajalliy qilganini aytadi.

*Zulfingiz yuz halqa, har bir halqada ming doim g'am,
Oshkoro fitnadur, lekin qilur pinhon balo [1, 29].*

Lutfiy zulfni oshiq'larga qo'yilgan "tuzoq", "makr" o'laroq tasvirlaydi.

*Qush tuzoq ko'rsa qochar, bu turfa ko'nglumning qushi,
Bo'ynini sunub aning zulfi tuzoqin orzular [1, 85].*

Bir g'azalida "zulf chini" ifodasini qo'llaydi. Ma'lumki, zulf (soch) mumtoz adabiyotda dunyo va dunyo tashvishlari, kufni, yor yuzi esa ilohiy nur va iymonni tamsil qilgan. Darhaqiqat, so'zning

ADABIYOTSHUNOSLIK

badiiy quvvati oshishi, badiiy didning takomil topib borishi natijasida matn tarkibida qo'llanilayotgan obraz va timsollar boyitilib, farqli ma'no kasb etib borgan. Zulf ham irfoniy adabiyotda keyinchalik chuqur tasavvufiy, falsafiy mazmun ifodalagan¹. Lutfiy lirikasida ham buning namunalarini uchratish mumkin.

*Garchi zulfung chinida kofir bo'lib erdi ko'ngul,
Burqa olgil chehradinkim tolibi imon erur* [1, 97].

Chin – sochning jingalasi, gajaklari, yor visoliga intilgan oshiq yo'lidagi mushkulotlardir. Kufr zulmatida sargardon ko'ngil egasi iymonni yagona chiqish yo'li deb biladi. Shu sabab ham ma'shuqasiga qarata yuzidagi burqa – niqob (yuzini to'sib turdan zulf)ni olishini so'raydi. Yor yuzining go'zalligi ilohiy lutf nishonasi. Unda Yaratgan husnining mazhari tajalliy etadi. Garchi ma'shuqaning zulfi oshiqning kufr-u zalolatga (dunyo tashvishlariga moyil qilsada) yo'llasada, oshiq yor yuziga boqqanda ilohiy nurni ko'radi. Qur'onda "Va yer Robbi nuri ila yorishdi" (Zumar surasi, 69-oyat), deya marhamat qilinganidek, U qalblarni O'z tajallisi va iymon nuri bilan munavvar qiladi.

*Zulfi agarchi kufr-u zalolatga dol erur,
Oydek yuziga boqqil-u nuri Xudoni ko'r* [1, 108].

NATIJALAR

Lutfiyning lirik qahramoni goh malohat va kamolotda tengsiz mahbubaning noz-u firog'iga sabrli, hijron azobini chekkan, g'am-anduhlar yuki ostida ezilgan oshiq, goh yorning sitami, bevafoligi va mehsizligidan xorlik, zahmat va mashaqqat chekkan mahzun ko'ngil egasi, goh ilohiy ishqdan sarmast va umidvor inson qiyofasida gavdalanadi. G'azallarining birida visol ilinjida intilgan tolib o'laroq: "*Bir tutub zulfungni yuz ming zahr topdim zulmidin*", deya o'kinar ekan, o'zini dunyoning makr-u hiylasiga aldangan gumroh deb ataydi. Undagi oshiq ba'zida ishq yo'lining uzunligi, turli sinovlar qarshida ojiz qolgan miskin qalb sohibi sifatida namoyon bo'ladi:

*Yo'din ozdi nogahon zulfun ko'rub miskin kungul,
Yo'llar egri, tun uzun, netkay bu gumrohim mening?* [1, 145].

Allohning jamol va jalol sifatleri butun borliqda aks etar ekan, bu yaratilish silsilasining oxiri sanalgan insonda namoyondir. Ma'shuqi azalning qudratini qalamga olgan shoir yuz, zulf, ko'z tasvirlaridan unumli foydalanadi:

*O'g'onki, qudrat ichinda kamol ko'rguzdi,
Yuzungnung oyinasinda jamol ko'rguzdi.
Jahonni o'rtadi ul damki yuz-u zulfungdin,
Tajalliyoti jamol-u jalol kurguzdi* [1, 272].

Quyidagi baytga tasavvufiy mohiyat nazokat bilan singdirilgan bo'lib, tavhidga intilayotgan oshiqning ruhiy manzaralari yaqqol ko'ringan. Baytda tazod san'ati vositasida fikriy ta'sirchanlik va aniqlikka erilshilgan:

*Ham tajallii jamol-u ham jalol ul ko'z dadur,
Ko'rguzur oq-u qarosi kufr-u imon suratin* [1, 225].

Lutfiyning lirik qahramoni har qanday holda ham yor visolidan umid uzmaydi. Zero, ishqiy e'tiqodi yuksak, taqvoda yetuk oshiq Haqqa tamoman taslimat ila tavakkul qiladi. Haqning lutf-u marhamati, keng karamiga tayangan lirik qahramon:

*Garchi mahramdur raqibim, Haqdin uzmasmen umid,
Berdi kofirning murodin, bermagaymu bizga kom?* – [1, 171]

deyishida oshiqning ma'naviy qiyofasi yorqin namoyon bo'ladi. Shoir nazdida, "*Yer yuzuni ko'z qoni bilan gulfom qilmagan*" kimsa oshiq bo'lmaganidek, nafsni doimiy malomat qilib, matonat bilan uni mahv etmagan kimsaga yor visolidan nasiba yo'q:

*Xoni visolidin manga tegmas navolaye
Kim, mavti ahmar otlig' aning intizore yo'q* [1, 134].

Mazkur bayt ishq, oshiq, yor haqidagi so'fiyona qarashlarni jamlash bilan birga shoirning ijodiy maqsadini ochib berishda ham muhim manba vazifasini bajargan. Undagi "mavti ahmar" jumlasida esa oshiq – solik qalbidagi kechayotgan kechinmalarga hamohang. Ahli tasavvuf orasida Muhammad s.a.v.ning "O'lmasdan burun o'ling" so'zlari nafsni tanishda asos vazifani bajargan. Dunyoviy muhabbatdan mosuvo bo'lish, nafsdagi qusurlardan xolos bo'lishga intilish, uni mahv

¹ Qarang: A. Qurbonov. Zulf – so'fiyona istilohda olam ramzi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/abdulhamid-qurbonov-zulf-oy-zuhal.html>

etish insoniy irodaga bog'liq bir o'lim bo'lib, har bir solik unga qat'iy rioya qilishga uringan. Mutasavviflar o'z asarlarida buni nafsning mavti o'laroq tasvirlashgan va o'limning bir necha: Mavti ahmar (qirmizi – qizil o'lim – nafsning xohish va istaklariga qarshi turish), Mavti abyaz (oq o'lim – ochlik bilan qorin talablarini o'ldirish), Mavti ahdar (yashil o'lim – arzon mato parchalaridan yamoqli kiyim kiyishdir. Chunki yangi kiyim dunyo bilan bog'liq orzu hisoblanadi), Mavti asvad (qora o'lim – xalqning jabru jafosiga tahammul etish. Bunga “fano filloh” ham deyiladi, ya'ni butun fe'l va harakatlarni ma'shuqaning fe'lida foniy qilmoqdir) kabi turlari farqlangan [2, 263].

Lutfiy ijodidagi turli poetik vositalar: timsol-u tashbihlar, ramz-u ishoratlar ulug' shoirning san'atkorligini namoyon etish bilan birga til va ifodasidagi soddalik, ma'nosini yengil va oson tushunish kitobxonni o'ziga yaqinlashtiradi. Biroq, undagi zohiriy ma'no bilan kifoyalanib qolish, shoir ijodiga to'laqonli va xolis baho berishda to'siq bo'lishi mumkin. Xususan, quyidagi bayt mohiyatini idrok etishda o'quvchidan chuqur mulohazakorlik talab etiladi:

*Lutfiy zulf-u yuzudin hayrat maqominda tushub,
Bir ajib olamda qolmish kufr-u imondin yiroq* [1, 130].

Ma'lumki, tasavvufda hayrat maqomi inson aqli yetib borishi mumkin bo'lgan songgi nuqta. Tafakkur va idrokning oxirgi manzili. Bunda so'fiy Allohning qudrati, fazl-u karami cheksiz hikmati qarshisida, ba'zida ilohiy tajalliydan hayratga tushadi. Hayrat maqomidan keyin fano keladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) faqirlik maqomidagi o'n maqom, o'n nur, o'n yo'l, o'n o'rin va qirq martabadan bahs yuritar ekan, o'n yo'ldagi to'rtinchi maqom hayrat maqomi ekanligini aytganlar [3, 91]. Shoir shu holni tasvirlab, ajib bir olamda qolganini aytadi. Bu ajib olam – kufr-u iymon, do'zax-u jannat ahamiyatsiz bo'lgan, moddiy va ruhoniyyat, makon-u zamon, turli talab-u istaklardan xorij fano maqomidir.

MUHOKAMA

H.Zarif Lutfiy she'riyatining mavzu ko'lamiga munosabat bildirib, “Lutfiy mutasavvuf olimdan ta'lim olgan, so'fiylarni hurmatlagan, darvishona umr kechirgan bo'lishiga qaramay, uning she'rlari asosan real hayot bilan bog'langan bo'lib, muhabbat qo'shiqlari dunyo go'zaliga atab kuylangan” [7, 60], deya baholaydi. Biroq Lutfiy ijodida dunyoviy mahbuba go'zalligini ulug'lash va majoziy ishq tasviri yetakchilik qilsada, shoirning ayrim baytlari ilohiy ishqqa yo'g'rilmagan, tasavvufiy ma'nodan yiroq, deb aytish mushkul. Zero, adabuyotshunos I.Haqqul ta'kidlaganidek, Lutfiyning ayrim g'azallarida majoziy ishqdan ko'ra haqiqiy ishq hissiyotlari ustunlikka erishganligini sezish qiyin emas:

*Ey vujud, ul tor og'izdin hech bo'lsang, ne ajab,
Ushbu yo'lda yuruganlarga adamdin chora yo'q* [1, 137].

Og'iz irfoniy adabiyotda ilohiy kalom, uning tor va kichikligi esa ilohiy sir-asrorga aql bilan yetish imkonsizligini anglatgani ayon. Shu bois shoir vujudga qarata “hech”likni, ya'ni adamni birdan bir chora deb aytadi. Xo'sh, shoir “bu yo'l” deyishdan nimani maqsad qilgan? Bu – ishq yo'li. Zero, ishq yo'lidagi oshiqdan “hech”lik, “yo'q”lik, adam yo'lini tutish, ishqda fano bo'lish talab qilinadi. “*Beling-u og'zung xayoli birla bo'lg'umdur adam*” [1, 143], deyishi shoir ijodidagi oshiq ruhiyati va kayfiyatining to'la ma'nodagi ifodasidir.

XULOSA

Adabiy an'analar har qanday ijodkor uchun badiiy qadriyatlarni shakllantirish, so'z zavqi imkoniyatlaridan kengroq foydalanishda muhim omil bo'lishga xizmat qiladi. Uni asarlariga singdirib, zamon talablari va shaxsiy qarashlari bilan uyg'unlashtiradi. Bu jarayonda ijodkorning dunyoqarashi, badiiy fikrlash tarzi va ijtimoiy muhit kabi omillar katta ahamiyatga ega. Lutfiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin namunasi sifatida o'z davrining ijtimoiy, falsafiy, diniy qarashlarini birdek badiiy aks ettira olgan. Shoiridagi ifoda va tasvir mahorati o'ziga xosligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Lutfiy lirikasida, asosan, ishq, oshiqlik, yor go'zalligi va hayot haqiqatlari eng teran ifodalarda, eng baland tasvirlarda kuylangan. Shoir ijodida ishq mavzusini kuylashda an'anaviy ifodalar mavjud, biroq undagi oshiqning oh-u nolasida o'zgacha bir ohang, dard bor. Lutfiy ijodida dunyo go'zali, unga xos sifatlar asosiy maqsad o'laroq gavdalansada, majoziy va haqiqiy ishq tasviri mushtarak holda ifodalangan, bir-birini to'ldirgan o'rinlar ko'p uchraydi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Лутфий. Девон. Нашрга тайёрловчи: С.Эркинов. – Тошкент: F.Фуллом, 2012. – 412 б.
2. Шайх Нажмиддин Кубро. Тасаввуфий ҳаёт. Тарж: И.Ҳаққул, А.Бектош. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2004. – 263 б.
3. Яссавий “Фақрнома”си. Абдураҳмон Гўзал. – Тошкент: Наврўз, 2014. – 264 б.
4. Қиссаси Рабғузий. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. 1-китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240 б.
5. Ҳайитметов.А. Табаррук излар изидан. Мақолалар тўплами. Ғофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 152 б.
6. Ҳаққулов И. Ўзбек тасаввуф шеърятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлик, образлар лами): Филол.фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: 1995. – 282 б.
7. Ҳоди Зариф. Фозиллар фазилати. – Тошкент: F.Фуллом, 1969. – 136 б.